




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
IMOM BUXORIY XALQARO ILMUY-TADQIQOT MARKAZI



Abu Ali ibn Sino

(980-1037)




“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebahos merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

ABU ALI IBN SINO – OLIMLAR PESHVOSI


To‘liq ismi – Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali bo‘lib, Abu Ali, deb chaqirilgan. Xalq orasida “Ibn Sino”, Yevropada “Avitsenna”, allomalar orasida esa “Shayxurrais” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. 980-yil avgust oyida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan.

Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo‘lib, somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976-997) davrida Buxoroga ko‘chib kelgan. Afshonalik Sitora ismli



qizga uylanib, ikki o‘g‘il farzand ko‘rgan. O‘g‘illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjası Mahmud bo‘lgan. Husayn besh yoshidan ta’lim ola boshlagan. To‘qqiz yoshida Qur’oni karimni to‘liq yod olib, odob-axloq darslarini mukammal o‘zlashtirib borgan. Matematika bilan ham shug‘ullangan. Arab adabiyotiga oid kitoblarni o‘qib chiqqan. Uning ilmga kuchli ishtiyoqi va zo‘r qobiliyati hammani hayratga solgan.

Ibn Sinoning shogirdi Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, alloma jismonan juda baquvvat bo‘lsa-da, shaharma-shahar yurishi, kecha-kunduz tinim bilmay ishlashi va bir necha bor ta‘qib qilinishi, hatto hibsda yotishi olimning salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.



Oqibatda qulanj (kolit) kasalligiga chalingan.

Alloma jahon ilm-fani va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan.

Zamondoshlari Ibn Sinoni “Sharaful mulk” (“Saltanat sharafi”), “Hujjatul haq” (“Haqiqat tasdig'i”), “Hakim vazir” (“Donishmand vazir”) deb atagan.

Isfahon hokimi Alouddavlarning Hamadonga harbiy yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo'lda ahvoli yomonlashib, 1037-yili Hamadonda 57 yoshida vafot etadi.

USTOZLARI

Ibn Sino ilk ustozи Abu Abdulloh Notiliydan manтиq, muhandislik va astronomiya ilmlarini о‘rgangan. U shogirdining qobiliyatiga yuqori baho berib, yanada chuqurroq ilm olishga undagan.

Abu Ali tinmay mutolaa qilib, ilmnинг turli sohalarini о‘zlashtirishga kirishadi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni о‘rganadi, xususan, tabobat ilmiga alohida mehr qо‘yadi va bu sohada tez kamol topa boshlaydi.

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak darajaga erishishida buxorolik tabib Abu Mansur Hasan ibn Nuh Qumriyning xizmati katta bo‘lgan. Ibn Sino undan tabobatni о‘rganib, ilmnинг ko‘p sirlariga ega bo‘lgan.

Allomaning о‘zi bunday hikoya qiladi: “Keyinchalik tib ilmi bilan shug‘ullangim kelib qoldi. Unga oid kitoblarni о‘qishga kirishdim. Tib о‘zi qiyin ilmlardan emas edi. Shu sababli qisqa muddat ichida bu sohada shunday natijalarga erishdimki, hatto fozil tabiblar ham huzurimga kelib, mendan tib ilmini о‘rganadigan bo‘ldi”.

Ibn Sino juda tirishqoq, о‘z oldiga qо‘ygan maqsadiga erishmaguncha tinchimaydigan odam

Abu Ali ibn Sino

bo'lgan. Allomaning o'zi bunday yozadi: "O'sha kezlari biron kecha to'yib uxlamasdim, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmasdim. Har bir masalani o'rganayotganimda bir qancha qiyosiy faktlarni solishtirib, shu faktlar nuqtayi nazaridan o'sha dastlabki masala yuzasidan xulosa chiqarar edim. Nihoyat, uning asl mohiyati menga ayon bo'lib qolardi. Ana shu zaylda hamma bilimlarni mustahkam egallab oldim. Bir insonning imkoniyati darajasida ularni o'zlashtirdim".

Ibn Sino zaruriy bilimlarning barchasini Buxoroda olgan. Vaqt o'tib, o'zi ham asarlar yozishga kirishgan.



ILMIY FAOLIYATI


Abu Ali ibn Sinoning tirishqoqligi va matonatli bo‘lgani haqida o‘zi bunday yozadi: “Mantiq, tabiat va matematika bilimlarini puxta o‘rganib oldim. Keyin ilohiyotni o‘rganishga o‘tib, “Metafizika” kitobini o‘qidim. Lekin unda nimalar deyilganini tushuna olmadim, kitob yozgan kishining maqsadi menga qorong‘u edi. Hatto uni qirq bir marta o‘qidim, kitob yod bo‘lib ketdi. Shunda ham kitob va uning maqsadini to‘la tushunib yeta olmadim. Nihoyat, umidimni uzib, “Bu tushunib bo‘lmaydigan bir kitob ekan”, degan xulosaga keldim. Ammo kunlardan bir kun asr vaqtি kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Bir kitobfurush muqovalangan kitobni qo‘lida tutganicha uni maqtardi. U meni ham chaqirib, kitobni ko‘rsatdi... Lekin men kitobni sotib olishni rad qildim. Kitobfurush menga: “Bu kitobni ol, narxi arzon, uch dirhamga sotaman, egasi pulga muhtoj”, dedi. Kitobni noiloj sotib oldim. Qarasam, u Abu Nasr Forobiyning “Metafizika” kitobi haqida yozgan sharhi ekan. Uyga qaytib, darrov uni o‘qishga kirishdim. Asar yod bo‘lib qolgani sababli tezda bu kitobning maqsadini tushunib oldim. Bu ishdan o‘zimda yo‘q

xursand edim”.

Allomaning ilmiy ijodi o‘n sakkiz yoshdan boshlangan. Dastlab bu ishni o‘ziga yaqin bo‘lgan kishilarning iltimosi bilan bajargan. Yosh bo‘lishiga qaramay, Nuh ibn Mansurga atab “Hadyatur rais” (“Rais Ibn Sino hadyasi”) asari, “Urjuza fit tib” (“Tibbiyot haqida doston”) she’riy asari hamda o‘z qo‘snnisi va do‘sti Abuhusayn Aruziyning iltimosiga binoan ko‘p fanlarni o‘z ichiga olgan “Hikmatul Aruziy” (“Aruziy hikmati”) asarini tasnif etgan.

Ibn Sino Buxoroda yigirma jildli qomusiy asari “Al-Hosil val mahsul” (“Yakun va natija”), ikki jildli “Kitobul birr val ism” (“Yaxshilik va yomonlik kitobi”) asarini va o‘zining tabobatga oid birinchi risolasi “Tabobat lug‘ati”ni yozgan. Bu risoladan ko‘p tabiblar nusxa olib, keng foydalangan.





Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari uning nomini asrlar davomida shu fan bilan chambarchas bog‘lab kelmoqda. Allomaning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o‘zigacha o‘tgan turli xalq namoyandalari tomonidan tib ilmi sohasida to‘plangan ma’lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga solgan va ularni o‘z tajribasi bilan boyitgan holda ma’lum nazariya va qonun-qoidalar asosida umumlashtirgan. Uning “Tib qonunlari” asarining jahon tib ilmi tarixi va taraqqiyotida tutgan o‘rni beqiyosdir. U tib nazariyasini, xususan, anatomiya – inson tanasi tuzilishini mukammal bilgan.

Ibn Sino o‘tkir diagnost ham edi. Uning ba’zi tashxis usullari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. O’sha paytlardayoq a’zoga urish orqali tashxis qo‘ya olgan.



Tabobat tarixida birinchi bo‘lib vabo bilan o‘latni farqlagan. Ibn Sino insoniyat tarixida ko‘z jarrohligi amaliyotini birinchilardan bo‘lib amalga oshirgan. Yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni boshqalardan ajratish zarurligini ta’kidlagan. Chiqqan yelka suyagini joyiga solish usuli hozirgi kungacha Ibn Sino nomi bilan yuritiladi. Singan suyakni gipslash yo‘li bilan davolash usuli ilk bor Ibn Sino tomonidan qo‘llangan.

Bemorlarni davolashda olim uch narsaga: tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo‘llash (qon olish, banka qo‘yish, zuluk solish, huqna va boshqalar)ga ahamiyat berish kerakligini ta’kidlagan.

Ibn Sino salomatlikni saqlashda shaxsiy gigiyena,

uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan.

Alloma dorishunoslik sohasida ham chuqur tadqiqotlar olib borgan. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozir ham qo'llaniladi. Alloma davolash jarayonida 540 dorivor o'simlikdan foydalangan bo'lib, ularning 396 tasidan hozir ham tibbiyotda keng foydalaniladi. Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so'ng murakkab tarkibli dorilar bilan davolagan. Eng muhimi, oziq-ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni tabiiy foydali mahsulotlar – meva-sabzavot, go'sht-sut va boshqalardan boshlagan. Dori berishda bemorning mijoji, yoshi, yashayotgan joyidagi iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan.

Ibn Sino jahonda qomusiy olim sifatida tan olingan. Alloma asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilarini esa fors tilida bitgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozgani qayd etiladi. Afsuski, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan. Bizgacha 242 tasi yetib kelgan. Allomaning asarlari butun insoniyat uchun boy meros bo'lib qoldi.

SO‘NGSO‘Z


Abu Ali ibn Sino sermahsul ijodi, boy ilmiy merosi bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shtigan allomadir. U o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida ham yuqori mavqega erishdi. Hatto G‘arb ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Alloma o‘z davrida “Olimlar peshvosi” va “Tabiblar podshohi” kabi bir qancha unvonlarga sazovor bo‘lgan.

Ibn Sino asarlari G‘arb mamlakatlarida XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilingan. Birgina “Tib qonunlari” asari lotinchada qirq marta to‘liq holda nashr etilgan. Sharq va G‘arbda Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asaridan 700 yil mobaynida tibbiyot sohasida asosiy qo’llanma sifatida foydalanilgan.

“Kitobush shifo”ning ko‘p bo‘limlari, mantiq, musiqa, Yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga doir qismlari ham lotin tilida bosmadan chiqqan.

Allomaning ilmiy ijodi, chuqur falsafiy mazmunni ifodalovchi ruboiliali Sharq adabiyotida qissalar janrining rivojlanishiga turtki bergen.

Jahon olimlari tomonidan Abu Ali ibn Sino asarlari, uning faoliyati bo'yicha hozirgacha muntazam ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dunyo bo'ylab deyarli barcha tillarda alloma haqida asarlar bitilgan.



ABU ALI IBN SINO O'GITLARIDAN

Ilm narsalarning inson aqli yordamida o'rganilishidir.

Donishmandlik hayot so'qmoqlarida ulug' saodatni hozirlab, in'om etuvchi vositadir.

Xulqning muvozanati a'zolar salomatligini ta'minlaydi.

Mol-dunyoing seni aldamasin! Chunki asragan mol-dunyoing boshqalarniki bo'ladi. Uni yaxshilikka sarf eta olsanggina seniki bo'ladi.

Kishi uchun eng foydali, dilni yorituvchi narsa qanoatdir. Eng zararli va nafrat keltiruvchi narsa esa hirs va g'azabdir.

Yordam berishning go‘zalligi kishilarning undan tasalli topishida ko‘rinadi.

Bir kishi sen bilan munosabatida xato qilib, so‘ng uzrini bayon etsa, uning uzrini kechiktirmay qabul et!

Agar havoda chang va tutun bo‘lmaganida edi, odamlar ming yil ham yashagan bo‘lardi.

Hayo insonning abadiy go‘zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o‘xshaydi.

O‘z vaqtida, me’yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo‘lamaydi.

Badantarbiya bilan mashg‘ul bo‘linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq lozim.



Buxoro



IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI

Nashr uchun mas'ul: **Abduvosi SHONAZAROV**
G'oya mualliflari: **Shahzod ISLOMOV, Shovosil ZIYODOV**
Mas'ul muharrir: **Otabek MUHAMMADIYEV**

Muharrir: **Anvar BOBOYEV**
Musahih: **Husan NISHONOV**
Dizayner: **Muhammadiqbol SHUKUROV**

© IBXITM - 2023

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning
2021-yil 19-avgustdagi 03-07/5077-raqamli xulosasi asosida tayyorlandi.

